DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojhpl-05-12-14 Pages: 117-122

Oriental Journal of History, Politics and Law

SUPPORT SCIENCE

ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:
https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl



THE EMERGENCE OF SOCIAL RIGHTS AND THE STAGES OF THEIR HISTORICAL DEVELOPMENT

Doniyor Jumaboyev
Lecturer
Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan
d.jumaboev@mail.ru
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: social rights, human rights, citizenship, equality, justice, international law, state obligations.

Received: 02.12.25
Accepted: 03.12.2
Published: 04.12.25

Abstract: This article analyzes the historical formation of social rights along with their philosophical, legal, and political foundations. It highlights the stages of development—from ancient times to the modern international legal system—examining key ideological sources and the process of institutionalizing social rights through national and international documents.

IJTIMOIY HUQUQLARNING PAYDO BO‘LISHI VA TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Doniyor Jumaboyev
O‘qituvchi
Mirzo Ulug‘bek Nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
d.jumaboev@mail.ru
Toshkent, O‘zbekistom

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: ijtimoiy huquqlar, inson huquqlari, fuqarolik, tenglik, adolat, xalqaro huquq, davlat majburiyatlari.

Annatatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy huquqlarning tarixiy shakllanish jarayoni, uning falsafiy, huquqiy va siyosiy ildizlari tahlil qilinadi. Shuningdek, qadimgi davrdan zamonaviy xalqaro huquq tizimigacha bo‘lgan rivojlanish bosqichlari, asosiy g‘oyaviy manbalar hamda milliy va xalqaro hujjatlar misolida ijtimoiy huquqlarning mustahkamlanish jarayoni yoritiladi.

ВОЗНИКНОВЕНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ ПРАВ И ЭТАПЫ ИХ ИСТОРИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ

Дониёр Джумабоев
Преподаватель
Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
d.jumaboev@mail.ru
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬ

Ключевые слова: социальные права, права человека, гражданство, равенство, справедливость, международное право, государственные обязательства.

Аннотация: В данной статье анализируется исторический процесс формирования социальных прав, а также их философские, правовые и политические истоки. Освещаются этапы развития — от древних эпох до современной системы международного права, основные идейные источники, а также процесс закрепления социальных прав на примере национальных и международных документов.

Krisih. Ijtimoiy huquqlar bugungi kunda global miqyosda asosiy darajadagi huquqlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda xalqaro miqyosda ijtimoiy huquqlarni ta’minlashning normativ huquqiy mexanizmlari takomillashib bormoqda. Bu o’rinda insonlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish bilan bir qatorda, ularning ijtimoiy huquqlarini himoya va muhofaza qilish, ularning ijtimoiy hayotdagi faolliklarini oshirish bilan bir qatorda yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarda ularning mehnat qilish, ta’lim olish va kafolatlangan bepul tibbiy xizmatdan foidalanish, ijtimoiy himoyaga muhtoj bo’lgan davrda davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy to’lovlar berilishi, qariganda, mehnatga layoqatsiz davrlarida ijtimoiy ta’minot olish kabi bir qancha huquqlarini o’z ichiga oladi.

Asosiy qism. Shu o’rinda ijtimoiy huquqlarning kelib chiqishi va paydo bo’lish bosqichlariga to’xtalamiz. Ijtimoiy huquqlar insonning qadr-qimmatini ta’minlashda, ijtimoiy adolat va tenglikni qaror toptirishda asosiy o‘rin tutadi. Ular inson huquqlarining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, insonning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotda to‘laqonli ishtirokini kafolatlaydi. Ijtimoiy huquqlar insonning munosib hayot kechirishini ta’minlaydigan eng muhim huquqiy kategoriyalardan biridir. Ular fuqarolarning ta’lim olish, sog‘liqni saqlash, mehnat qilish, ijtimoiy ta’minot va madaniy hayotda ishtirok etish huquqlarini o‘z ichiga oladi. Karel Vasak tomonidan inson huquqlari “uch avlod” sifatida tasniflangan: birinchi avlod — fuqarolik va siyosiy huquqlar, ikkinchi avlod — ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar, uchinchi avlod — jamoaviy va rivojlanish

huquqlari. Shu jihatdan ijtimoiy huquqlar inson huquqlarining “ikkinchi avlodi” sifatida e’tirof etiladi (Vasak, 1977) [1, 29–32].

Ijtimoiy huquqlarning shakllanishi uzoq tarixiy jarayon natijasi bo‘lib, qadimgi davrda adolat, tenglik va insonparvarlik tamoyillari asosida boshlangan.

Huquqning paydo bo‘lishi va shakllanish jarayoni o‘ziga xos ijtimoiy hodisadir. Huquq bevosita inson jamiyati mavjudligi bilan bog‘liq bo‘lgani sababli, huquqning vujudga kelish shartlari ham ijtimoiy xarakterga egadir.

Ibtidoiy jamiyatning moddiy va ma’naviy hayoti, u bilgan barcha bilish va amaliy faoliyat usullari bir-biridan ajralmagan edi. Ibtidoiy turmush tarzining bu rivojlanmagan holati ijtimoiy normalarning ajralishi muammosiga ham bevosita taalluqli bo‘lgan.

Amaliy harakat bilan ijtimoiy munosabat o‘rtasida farq bo‘lmagan. Diniy, axloqiy va boshqa ijtimoiy normalar o‘rtasida ham hech qanday tafovut mavjud emas edi.

Olimlar orasida qadimgi jamiyatda qaysi ijtimoiy normalar tartibga solishning asosiy manbai bo‘lgani borasida yagona fikr yo‘q. Emil Dyurkgeym shunday yozgan: “Sotsiologlar va tarixchilarning tobora ko‘proq qismi shunda yakdilki, din barcha ijtimoiy hodisalarning eng ibtidoiysi hisoblanadi. Aynan undan ketma-ket transformatsiyalar orqali boshqa barcha jamoaviy faoliyat ko‘rinishlari — huquq, axloq, san’at, fan, siyosiy shakllar va hokazolar vujudga kelgan. Aslida hammasi diniy tabiatga ega.”[2, 206]

Ijtimoiy huquqlarning paydo bo’lishining dastlabki shakllanish bosqichlari Qadimgi davr va O‘rta asrlarda:

Qadimgi dunyo davlatlarida ijtimoiy adolat, tenglik va himoya g‘oyalari ijtimoiy huquqlarning ilk ko‘rinishlarini tashkil qilgan. Qadimgi sivilizatsiyalarda — Bobil, Misr, Hindiston va Xitoyda — ijtimoiy adolat, kambag‘allarga yordam, yetim va bevalarni himoya qilish g‘oyalari davlat siyosatining ajralmas qismi bo‘lgan.

Bobil shohi Hammurapi qonunlari (mil. avv. XVIII asr)da “kuchsizlarni kuchlilarning zulmidan himoya qilish” tamoyili ilgari surilgan. Hammurapi qonunlari ijtimoiy himoya elementlarini o‘z ichiga olgan eng qadimgi hujjatlardan biridir. Unda “zaiflarni kuchlilarning zulmidan himoya qilish” tamoyili ifodalangan [3, 280].

Qadimgi Misrda “Ma’at” konsepsiyasi adolat, haqiqat va muvozanatni ifodalagan. Ma’at tushunchasi davlat boshqaruvi va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarda asosiy axloqiy me’yor sifatida qo‘llanilgan. Qadimgi Misrda “Ma’at” konsepsiyasi adolat, muvozanat va haqiqat g‘oyalarini ifodalagan bo‘lib, bu qadriyatlar keyinchalik ijtimoiy huquqlar tushunchasining axloqiy asosini shakllantirdi [3].

Rim davrida esa ijtimoiy adolat huquqiy ko‘rinish kasb eta boshladi. “Lex Frumentaria” (don tarqatish to‘g‘risidagi qonun, mil. avv. 123-y.) va “Lex Julia” qonunlari orqali kambag‘allar uchun ijtimoiy yordam mexanizmlari joriy etilgan [4].

Ijtimoiy huquqlarda Insonparvarlik va tenglik g‘oyalari davri (XVII–XVIII asrlar)da: Ma’rifatparvarlik davri mutafakkirlari insonning tabiiy va ajralmas huquqlarini, jumladan, ijtimoiy adolat g‘oyasini rivojlantirdilar.

John Locke insonning “hayot, erkinlik va mulk” huquqlarini tabiiy huquqlar sifatida ta’rifladi [5, 71].

Jean-Jacques Rousseau esa ijtimoiy tenglikni “ijtimoiy shartnoma”ning asosiy sharti sifatida ko‘rsatdi [6].

1789-yilgi Inson va fuqarolik huquqlari deklaratsiyasi esa tenglik va erkinlik tamoyillarini huquqiy jihatdan mustahkamlab, ijtimoiy huquqlar evolyutsiyasiga turtki berdi

Yangi davr falsafasi va ma’rifatparvarlik harakati insonning tabiiy huquqlari, erkinlik va tenglik g‘oyalarini ilgari surdi. John Locke, Jean-Jacques Rousseau va Montesquieu insonning tabiiy huquqlari qatorida ijtimoiy adolatni ham ko‘rganlar. [5, 74].

1789-yilgi Inson va fuqarolik huquqlari deklaratsiyasi (Fransiya) ijtimoiy huquqlarni bevosita nazarda tutmagan bo‘lsa-da, ularning asosini tashkil etuvchi tenglik va erkinlik tamoyillarini huquqiylashtirdi [6, 92].

Ijtimoiy davlat g‘oyasining shakllanishi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida: XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ijtimoiy tengsizlik va industrial jamiyatdagi mehnat sharoitlari ijtimoiy huquqlarning huquqiy jihatdan tan olinishi zaruratini tug‘dirdi.

Otto fon Bismark boshchiligidagi Germaniya hukumati (1880-yillar) dunyoda birinchi marta ijtimoiy sug‘urta tizimini joriy etdi — bu ijtimoiy huquqlarni amaliyotga tatbiq etishning boshlanishi edi [7].

Ijtimoiy huquqlarning XX asr o‘rtalari xalqaro darajada e’tirof etilishi: Ikkinchi jahon urushidan so‘ng ijtimoiy huquqlar xalqaro huquqning ajralmas qismiga aylandi.

1948-yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 22–27-moddalari ta’lim, sog‘liqni saqlash, dam olish, mehnat va ijtimoiy ta’minot huquqlarini e’tirof etgan [8. 119].

1966-yilgi Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt esa bu huquqlarga majburiy huquqiy maqom berdi [9].

Zamonaviy bosqichda Ijtimoiy davlat va barqaror rivojlanish tushunchalari:

Bugungi kunda ijtimoiy huquqlar BMT, Yevropa Ittifoqi, Afrika Ittifoqi va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan.

Ijtimoiy huquqlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Yevropa Ittifoqi (YEI), Afrika Ittifoqi (AU) va Amerika davlatlari tashkiloti (OAS) kabi xalqaro tuzilmalar doirasida inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida mustahkam o‘rin egallagan.

BMT tizimida ijtimoiy huquqlarni himoya qilishning asosiy hujjatlari —1948-yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1966-yilgi Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (ICESCR), BMT Inson huquqlari qo‘mitasining tavsiyalari hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqi darajasida esa bu huquqlar Yevropa Ijtimoiy Xartiyasi (1961, qayta ko‘rib chiqilgan 1996-yil) orqali mustahkamlangan. Ushbu hujjat mehnat qilish, adolatli ish sharoitlari, ijtimoiy ta’minot, sog‘liqni saqlash, uy-joy huquqi kabi qator kafolatlarni belgilaydi.

Yevropa inson huquqlari sudi (ECHR) va Yevropa Ijtimoiy huquqlar qo‘mitasi ushbu huquqlarning buzilishi bo‘yicha shikoyatlarni ko‘rib chiqish mexanizmini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasining normalarida fuqarolarning mehnat, dam olish, sog‘liqni saqlash va ta’lim olish huquqlari mustahkamlangan [10].

BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs, 2015) ham ijtimoiy huquqlarni global siyosatning markaziga qo‘ygan [11, 243].

Shu bilan birga, shaxsning ijtimoiy huquqlarining faol raqamli transformatsiyasi bilan bog‘liq holda yuzaga kelayotgan muammolar — fuqarolarning raqamli texnologiyalarga turlicha darajada ega bo‘lishi, kamsitish holatlarining virtual muhitga ko‘chishi, ijtimoiy soha xodimlari yuklamasining ortishi, aholining yangi xizmatlarga ishonchsizligi — davlatlardan bunday muammolarni tizimli hal etish bo‘yicha to‘g‘ri yondashuvni izlashni, davlat hokimiyati organlarining kompleks hamkorligini tashkil etishni, shuningdek, yuzaga kelayotgan xatarlarni baholashda davlat va shaxs manfaatlarini uyg‘unlashtirishni talab etadi.

Shu tariqa, har bir demokratik davlat ularning hozirgi paytdagi huquqiy, so‘ngra esa ijtimoiy-huquqiy davlatlar sifatida shakllanishi uchun uzoq rivojlanish yo‘lini bosib o‘tgan. Faqat ijtimoiy davlatgina shaxsning huquqiy maqomi elementlarining mavjudligi va rivojlanishini to‘liq ta’minlay oladi hamda inson va fuqaroning o‘z huquq va erkinliklarini to‘laqonli ro‘yobga chiqarishiga kafolat beradi. O‘z navbatida, shaxsning ijtimoiy huquq va erkinliklari davlatga ijtimoiy yo‘naltirilgan siyosat yuritish imkonini beradi, chunki aynan shaxsning ijtimoiy huquqlari majmui inson va fuqaroning hayotiy ehtiyojlarini qondirish, uning munosib hayoti va erkin rivojlanishini ta’minlash imkoniyatlarini belgilab beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda Ijtimoiy huquqlar bugungi kunda xalqaro huquqiy normalar ichida ham alohida o’rin egallaydi. Ijtimoiy huquqlar borasida Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida va uning tashkilotchiligida qabul qiliniyotgan xalqaro konvensiyalar va paktlar orqali xalqaro darajada ijtimoiy huquqlarning umummajburiy tan olingan normalari yaratilgan bo’lib ushbu normalarga milliy qonunchilik doiralarida amal qilishi va ularni monitoring qilish

mexanizmlari kabi xalqaro darajada ham ijtimoiy huquqlarni himoya qilish asoslari yaratilgan. Ijtimoiy huquqlar insoniyat tarixidagi eng muhim yutuqlardan biridir. Ular dastlab axloqiy tamoyillar sifatida shakllanib, keyinchalik huquqiy me'yor darajasiga ko'tarildi. Bugungi kunda ijtimoiy huquqlar davlatning ijtimoiy siyosatida, xalqaro hamkorlikda va inson qadr-qimmatini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Дюркгейм Э. Социология. Ее предмет, метод, предназначение. М., 1995. С. 206.
2. Васак К. Три поколения прав человека // ЮНЕСКО Courier. – 1977. – № 11. – С. 29–32.
3. Ассман Я. Маат: Справедливость и бессмертие в Древнем Египте. – Мюнхен: C.H. Beck, 1990. – 280 с.
4. Johnston, D. (1999). Roman Law in Context. Cambridge University Press.
5. Locke, J. (1689). Two Treatises of Government. London.
6. Déclaration des Droits de l'Homme et du Citoyen (1789). France.
7. Hennock, E. P. (2007). The Origin of the Welfare State in England and Germany, 1850–1914. Cambridge University Press.
8. Universal Declaration of Human Rights (1948). United Nations.
9. International Covenant on Economic, Social and Cultural Rights (1966). United Nations.
10. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yilgi tahriri).
11. United Nations (2015). Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development.